



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE’MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASI

BUYRUQ

Toshkent shahri

2024-yil “ 25 ” dekabr

277-ICH-son

Qo‘mita va uning tizim tashkilotlarida davlat byudjeti mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan nazorat tizimini yanada kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–100-son Farmonining 3-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Qo‘mita va uning tizim tashkilotlari faoliyatida xavflarni boshqarish, jumladan, xavflarni aniqlash, baholash, ularni minimallashtirish (bartaraf etish) va monitoringni tashkil etish, xavflarni boshqarish tizimi samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash uchun 2025-yil 1-yanvardan kollegial tartibda faoliyat yurituvchi **“Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi** (*keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita deb yuritiladi*) tashkil etilsin.

2. “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi Qo‘mitaning ishchi organi deb hisoblansin.

3. Qo‘mitaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Ishchi organ tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog‘liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro‘yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta‘minlash;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta‘minlash hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish;

xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha Ishchi organ faoliyatini samarali tashkil etish;

har chorak yakuni bo‘yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan Ishchi organ tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilish;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

xavflarning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

4. Ishchi organ Qo'mita yig'ilishlarining tashkil etilishi va o'tkazilishida:

Qo'mita yig'ilishi bo'yicha zarur ish materiallarini jamlaydi va tayyorlaydi;

Qo'mita yig'ilishining o'tkazilish sanasi, vaqti va joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni Qo'mita a'zolariga yetkazadi;

Qo'mita a'zolarini ish materiallari bilan tanishtiradi;

Qo'mita yig'ilishlari bayonnomalari loyihasini tayyorlaydi;

Qo'mita yig'ilishlari bayonnomasidan ko'chirmalarni qo'mitaning barcha manfaatdor tarkibiy tuzilmalariga yetkazadi;

Qo'mita faoliyati bo'yicha hujjatlarni tegishli tartibda hisobga oladi va saqlanishini ta'minlaydi;

Qo'mita faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

5. Devonxona (Ikramova) ushbu buyruqni Qo'mita markaziy apparati tarkibiy bo'linmalariga, hududiy organlariga va idoraviy mansub tashkilotlariga yuborilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Rais



H. Turaxujayev

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini
himoya qilish qo'mitasida tashkil etilgan "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi

TARKIBI*

1. H.Turaxujayev "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi raisi,
Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini
himoya qilish qo'mitasi raisi
2. A.Qayumov "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi raisi o'rinbosari,
Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini
himoya qilish qo'mitasi raisi o'rinbosari
3. A.Xakimov "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi a'zosi,
Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni
qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi boshlig'i
4. Sh.Shadmankulov "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi a'zosi,
Yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i
5. N.Sabirov "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi a'zosi,
Strategik rejalashtirish, metodologiya va
transformatsiya bo'limi boshlig'i

**Izoh: Qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki vaqtincha o'z joyida bo'lmaganda, uning o'rniga kelgan yoki vaqtincha vazifasini bajaruvchi xodim Qo'mita a'zosi hisoblanadi*